QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI





# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-IYUL*
*(DASTLABKI MA’LUMOT)*



**Sanoat statistikasi bo‘limi**
**Tel.: 61-222-75-87**

# Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-iyul oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida respublika korxonalari tomonidan 10062,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-iyil oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,8 % ni tashkil etdi.

| | B | C | D | E |
|---|---|---|---|---|
| | 0,8 % | 85,8 % | 12,8 % | 0,6 % |
| | Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul |
|---|---|---|
| B | 9,3 % | 106,2 % |
| C | 112,0 % | 100,5 % |
| D | 135,4 % | 100,9 % |
| E | 90,4 % | 108,4 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatning – 6,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 0,5 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 0,9 % ga hamda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – 8,4 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**yanvar-iyul**

**2022- yil**
**78,4 mlrd. so‘m**

**2022- yil**
**106,2 %**

**2021- yil**
**45,2 mlrd. so‘m**

**2021- yil**
**9,3 %**

**B**

**2020- yil**
**73,8 mlrd. so‘m**

**2020- yil**
**19,0 %**

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 78,4 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini tashkil etdi.*

## Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

**2021- yil**
**B**
**0,5 %**

**2022- yil**
**B**
**0,8 %**

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohah tosh, ming t. | 100,6 | 137,8 | 37,2 |







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 1189,3 | 822,2 | -367,1 |
| Gaz kondensati, ming t. | 57,2 | 47,1 | -10,1 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8633,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,8 % ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-iyul** 85,5 %

**2022-yil yanvar-iyul** 85,8 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yil yanvar-iyul 1,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 62,4 % (67,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,7 % (3,5 %) va quyi texnologiyalisi – 32,7 % (27,4 %) ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 62,9 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,4 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 15,1 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,1 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,3 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 123,8 %) tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning oʻsish surʼati

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

**Aroq**




**Paxta chigiti**




**Sement**




**Oʻsimlik yogʻi (tozalangan)**




**Kalava ip**




**Yumshoq bugʻdoy va spelta uni**



2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 1,4 ming tonna tozalangan guruch (2021- yilning mos davriga nisbatan 20,0 % ga), 19,5 ming tonna paxta tolasi (18,8 %), 169,3 ming tonna portlandsement (18,4 %), 27,9 ming tonna paxta chigiti (8,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi. Shuningdek, 69,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (0,5 % ), 9,3 ming tonna kalava ip (3,8 %), 1902,8 ming litr aroq (11,4 %) va 1,9 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (59,2 %) ishlab chiqarilib, 2021-yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Aroq, *ming litr 100 % li spirt*** | 2146,6 | 1902,8 | -243,8 |
| **Polietilen, *ming t.*** | 197,8 | 175,6 | -22,2 |
| **Polipropilen, *ming t.*** | 55,5 | 49,5 | -6,0 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 69,4 | 69,1 | 0,3 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 16,4 | 19,5 | 3,1 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 4,6 | 1,9 | -2,7 |

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 67,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 116,2 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 62,4 % ni, fizik hajm indeksi 98,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5391,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 23,8 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 297,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,6 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1195,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 132,3 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqa-rishning ulushi 1,3 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 109,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 112,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*




## Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-iyul oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,6 % ni tashkil etgan boʻlsa, uning fizik hajm indeksi 113,4 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 1,3 % ga kamaygan boʻlsa, ishlab chiqarish hajmi 1294,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021- yil yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 89,1 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 %, fizik hajm indeksi 155,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 92,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1287,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,8 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,9 % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 2885,2 | 3249,4 | 364,2 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 38,4 | 29,4 | -9,0 |
| Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, *mln. so‘m* | 60852,8 | 66152,3 | 5299,5 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62,5 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.




### Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 4320,3 | 5034,0 | 713,7 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 9380,8 | 10407,4 | 1026,6 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 35183,7 | 37066,3 | 1882,6 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar – 5,4 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 16,5 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig’ish bo‘yicha xizmatlar – 10,9 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1656,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 16,5 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021-yil yanvar-iyul** — **61,6 %**

**2022-yil yanvar-iyul** — **64,2 %**

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2021-yil yanvar-iyul** — **38,4 %**

**2022-yil yanvar-iyul** — **35,8 %**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,6 % (2021- yil yanvar-iyul oylari 6,3 %) ni tashkil etdi.*

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 18,6 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 12,6 % ni, Ellikqal’a tumani 10,9 % ni, To‘rtko‘l tumani 8,9 % ni, Beruniy tumani 7,1 % ni, Xo‘jayli tumani 7,0 % ni, Amudaryo tumani 6,4 % ni va Chimboy tumani 6,3 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati respublika o‘sish sur’ati (112,3 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Shumanay (245,7 %), Qorao‘zak (176,0 %), Ellikqal’a (152,3 %), Nukus (139,4 %), Amudaryo (134,4 %), Mo‘ynoq (130,7 %), Chimboy (124,4 %), Taxiatosh (121,6 %), Beruniy (114,0 %) hamda Xo‘jayli (113,9 %) tumanlarida qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 18,6 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 12,6 % ni, Ellikqal’a tumani 10,9 % ni, To‘rtko‘l 8,9 % ni, Beruniy tumani 7,1 % ni, Xo‘jayli tumani 7,0 % ni va Amudaryo tumani 6,4 % ni tashkil etdi.*




*1423,7 mlrd. so‘m*
*2020- yil*

*1385,0 mlrd. so‘m*
*2021- yil*

*1656,1 mlrd. so‘m*
*2022- yil*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020-yil** — **105,9 %**

**2021- yil** — **102,0 %**

**2022- yil** — **112,3 %**

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ellikqal’a tumaniga to‘g‘ri kelib, 21,2 % ni, shuningdek, Nukus shahri 13,4 % ni, Xo‘jayli tumani 9,8 % ni, To‘rtko‘l tumani 9,7 % ni, Shumanay tumani 7,1 % ni hamda Amudaryo tumani 6,5 % ni tashkil etdi.*

**519,6** mlrd. so‘m
2020- yil

**531,2** mlrd. so‘m
2021- yil

**593,1** mlrd. so‘m
2022- yil




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 102,4 %

02 2021- yil 107,9 %

03 2022- yil 106,7%



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqa-rilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 21,4 %, shuningdek, Taxiatosh tumani 17,5 % ni, To‘rtko‘l 8,4 % ni, Beruniy 7,5 % ni, Chimboy 6,8 % ni, Xo‘jayli hamda Taxtako‘pir 5,4 % ni tumanlari tashkil etdi.




**904,1** mlrd. so‘m
*2020- yil*

**853,8** mlrd. so‘m
*2021- yil*

**1063,0** mlrd. so‘m
*2022- yil*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 108,1 %

02 2021- yil 98,6 %

03 2022- yil 120,2 %

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,9 %), Taxiatosh (13,2 %), Qo‘ng‘irot (4,1 %), To‘rtko‘l (3,7 %), Amudaryo (3,4 %) va Beruniy (3,2 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.*

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**

| Yil | Hajm |
|---|---|
| 2020- yil | 7756,1 mlrd. so‘m |
| 2021- yil | 9449,8 mlrd. so‘m |
| 2022- yil | 10062,0 mlrd. so‘m |



| Yil | % |
|---|---|
| 2020- yil | 101,9 % |
| 2021- yil | 107,1 % |
| 2022- yil | 100,6 % |

| Hudud | FHI, % da | mlrd. so‘m |
|---|---|---|
| Amudaryo | 106,8 | 340,2 |
| Beruniy | 117,2 | 325,5 |
| Bo‘zatov | 101,4 | 12,6 |
| Qorao‘zak | 109,7 | 211,5 |
| Kegeyli | 108,0 | 106,9 |
| Qo‘ng‘irot | 96,5 | 415,4 |
| Qonliko‘l | 101,0 | 201,0 |
| Mo‘ynoq | 108,1 | 92,9 |
| Nukus t. | 105,3 | 178,8 |
| Taxiatosh | 100,2 | 1325,8 |
| Taxtako‘pir | 112,3 | 197,4 |
| To‘rtko‘l | 132,3 | 373,8 |
| Xo‘jayli | 108,7 | 140,4 |
| Chimboy | 98,3 | 157,4 |
| Shumanay | 104,1 | 93,2 |
| Ellikqal'a | 103,8 | 264,3 |
| Nukus sh. | 96,5 | 5624,9 |

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (17015,2 ming so‘m) va Taxiatosh tumanida 17512,1 ming so‘m) o‘rtacha Respublika darajasi ko‘rsatkichidan (5145,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*

| | o‘sish sur’ati | ming. so‘m |
|---|---|---|
| Amudaryo | 104,9 | 1655,0 |
| Beruniy | 115,3 | 1642,5 |
| Bo‘zatov | 101,0 | 575,6 |
| Qorao‘zak | 108,7 | 3937,1 |
| Kegeyli | 107,3 | 1448,9 |
| Qo‘ng‘irot | 95,5 | 3118,2 |
| Qonliko‘l | 99,6 | 3822,6 |
| Mo‘ynoq | 105,9 | 2801,4 |
| Nukus t. | 103,5 | 3430,5 |
| Taxiatosh | 99,0 | 17512,1 |
| Taxtako‘pir | 111,7 | 4853,4 |
| To‘rtko‘l | 130,2 | 1685,5 |
| Xo‘jayli | 107,3 | 1114,1 |
| Chimboy | 97,6 | 1378,9 |
| Shumanay | 103,2 | 1632,2 |
| Ellikqal'a | 102,1 | 1599,8 |
| Nukus sh. | 94,9 | 17015,2 |

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

2020- yil
4073,2 ming so‘m

2021- yil
4901,6 ming so‘m

2022- yil
5145,7 ming so‘m



01 — 2020- yil — 100,7 %

02 — 2021- yil — 105,8 %

03 — 2022- yil — 99,2 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 846,9 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxiatosh tumanida 2753,4 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida 1724,2 ming so‘mni, Ellikqal'a tumanida 1091,2 ming so‘mni, Shumanay tumanida 987,6 ming so‘mni va Xo‘jayli tumanida 916,7 ming so‘mni tashkil etdi.

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**2020- yil** — 747,7 ming so‘m

**2021- yil** — 718,4 ming so‘m

**2022- yil** — 846,9 ming so‘m



**2020- yil** — 104,7 %

**2021- yil** — 100,7 %

**2022- yil** — 110,7 %



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1879,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,7 % ni tashkil etdi.*




### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**2020- yil** — 1704,0 mlrd. so‘m

**2021- yil** — 1721,5 mlrd. so‘m

**2022- yil** — 1879,2 mlrd. so‘m



**2020- yil** — 22,0 %

**2021- yil** — 18,2 %

**2022- yil** — 18,7 %

## Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 3406 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1928 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 56,6 %) Nukus shahriga 680 tasi (20,0 %), To‘rtko‘l 346 tasi (10,2 %), Amudaryo 312 tasi (9,1 %), Ellikqal'a 296 tasi (8,7 %) Beruniy 294 tasi (8,6 %) tumanlariga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil — 391 dona

2021- yil — 535 dona

2022- yil — 484 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil — 2546 dona

2021- yil — 3206 dona

2022- yil — 3406 dona